

Yopiq faktoring xizmatini taqdim etish haqida SHARTNOMA

20__ yil _____ -son _____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki “_____” bank xizmatlari ofisi (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi _____ Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tarafdano, _____ korxonatashkilot/yakka tartibdagi tadbirkor (keyingi o‘rinlarda – Sotuvchi/mijoz) rahbari _____ Ustav (Guvohnoma) asosida faoliyat yuritib, ikkinchi tarafdano, ushbu Faktoring shartnomasini quyidagilar haqida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Sotuvchi/mijoz xaridorga/mijozga bo‘lgan 20__ yil “__” _____ da tuzilgan _____-son oldi-sotdi (xizmat ko‘rsatish) shartnomasi va ushbu shartnoma asosida 20__ yil “__” _____ da berilgan _____-son hisobvaraqq-faktura bilan tasdiqlangan _____ (_____) so‘mlik pul talabidan Bank foydasiga voz kechadi, Bank esa o‘z foydasiga voz kechilgan pul talabini qabul qiladi.

2. Ushbu Faktoring shartnomasi bo‘yicha Bank Sotuvchiga/mijozga _____ (_____) so‘m mablag‘ni (keyingi o‘rinlarda – moliyalashtirilgan mablag‘) taqdim etadi, bu mazkur Faktoring shartnomasining 1-bandida ko‘rsatilgan pul qiymatining ____ (_____) foizini tashkil etadi.

3. Sotuvchi/mijoz Bankni to‘liq haqdor sifatida tan oladi, Sotuvchining/mijozning Bank oldidagi to‘lov majburiyatlariga ushbu Faktoring shartnomasining 1-bandida ko‘rsatilgan pul qiymati, shuningdek mazkur Faktoring shartnomasida nazarda tutilgan penya qiymati kiradi.

4. Sotuvchi/mijoz faktoring xizmatidan foydalanganligi uchun Bankka ushbu Faktoring shartnomasining 1-bandida ko‘rsatilgan pul qiymatining ____ (_____) foizi miqdorida, ya‘ni _____ (_____) so‘m diskont to‘laydi.

2-§. Faktoringni taqdim etish, moliyalashtirilgan mablag‘ni qaytarish va diskontni to‘lash shartlari

5. Faktoring xizmati _____
(*yetkazib berilgan tovarni, bajarilgan ishni, ko‘rsatilgan xizmatni*) moliyalashtirish uchun taqdim etiladi.

6. Faktoring xizmatining muddati, moliyalashtirilgan mablag‘ Sotuvchining/mijozning bank hisobvarag‘iga o‘tkazilgan kunning ham qo‘shgan holda, ____ kalendar kun.

7. Faktoringni moliyalashtirish moliyalashtirilgan mablag‘ni Sotuvchining/mijozning mazkur Faktoring shartnomasida ko‘rsatilgan bank hisobvarag‘iga o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

8. Moliyalashtirilgan mablag‘ni qaytarish va diskontni undirish ushbu Faktoring shartnomasining 3-bandida ko‘rsatilgan majburiyat bo‘yicha Sotuvchi/mijoz tomonidan Bankka o‘tkazilgan pul mablag‘i hisobidan amalga oshiriladi.

3-§. Taraflarning huquq va majburiyatlari

9. Bankning huquqlari:

a) Sotuvchidan/mijozdan ushbu Faktoring shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarini Bank foydasiga bajarishni talab qilish;

b) Faktoring shartnomasi kuchga kirgan kundan boshlab, Bank ushbu Faktoring shartnomasi bo‘yicha topshirilgan pul talabini qabul qilish va oldi-sotdi (xizmat ko‘rsatish) shartnomasi bo‘yicha Sotuvchining/mijozning barcha huquqlariga ega bo‘lish;

d) ushbu Faktoring shartnomasi bo‘yicha Sotuvchi/mijoz tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning bajarilmaganligi va/yoki lozim darajada bajarilmaganligi oqibatida paydo bo‘lgan qarzdorlik belgilangan muddatda to‘lanmagan taqdirda, Sotuvchini/mijozni 10 bank ish kuni avval yozma ogohlantirgandan so‘ng bajarilmagan pul talabiga nisbatan, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan, Sotuvchining/mijozning mahalliy va xorijiy banklardagi har qanday bahk hisobvaraqlariga akseptsiz tarzda to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lov talabnomasi qo‘yish;

e) Sotuvchi/mijoz mazkur Faktoring shartnomasida nazarda tutilgan majburiyatlarini buzgan

holatlarda, moliyalashtirilgan mablag'ni zudlik bilan qaytarib berishni va tegishli diskont miqdori to'lanishini talab qilish;

f) ushbu Faktoring shartnomasining 1-bandida ko'rsatilgan qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmaganligi uchun Sotuvchidan/mijozdan, har bir muddati o'tgan kun uchun to'lov muddati o'tgan qarzdorlik qiymatidan 0,1 foiz miqdorida, lekin muddati o'tgan qarzdorlikning 50 foizidan oshmagan miqdorda, penya undirish;

g) Sotuvchi/mijoz tomonidan, ushbu Shartnoma doirasida, korrupsion harakatlar bevosita yoki bilvosita sodir etilganligi aniqlansa, mazkur Shartnomani bir taraflama bekor qilish.

10. Bankning majburiyatlari:

a) Sotuvchini/mijozni mazkur Faktoring shartnomasida ko'rsatilgan hajmda va shartlarda moliyalashtirishni ta'minlash;

b) Sotuvchidan/mijozdan ushbu Faktoring shartnomasi shartlariga muvofiq olingan mablag'ni uning mazkur Faktoring shartnomasi bo'yicha Bank oldidagi qarzini so'ndirishga yo'naltirish.

11. Sotuvchining/mijozning huquqlari:

a) Bankdan ushbu Faktoring shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini bajarishni talab qilish;

b) ushbu Faktoring shartnomasining 1-bandida ko'rsatilgan qarzdorlikni mazkur Faktoring shartnomasining 6-bandida belgilangan muddatdan oldin ham qaytarish.

12. Sotuvchining/mijozning majburiyatlari:

a) mazkur Faktoring shartnomasi imzolanadigan kundan kechiktirmasdan elektron faktoring platformasiga to'lanishi lozim bo'lgan hisobvara-q-faktura (ushbu hujjatning to'lov muddati o'tmagan bo'lishi lozim) va xaridorga/mijozga yetkazib berililgan tovar (ko'rsatilgan xizmat) bo'yicha solishtirish dalolatnomasi joylashtirish;

b) agar pul talabi haqqoniy bo'lmasa (ya'ni sotuvchi/mijoz xaridorga/mijozga buyurtma berilmagan tovarni jo'natgan bo'lsa, tovarda nuqson yoki kamchiliklar bo'lsa va hokazo), to'lov shartlaridan qat'iy nazar moliyalashtirilgan mablag'ni qaytarib berish;

d) ushbu Faktoring shartnomasining 1-bandida ko'rsatilgan qarzdorlikni mazkur Faktoring shartnomasining 6-bandida belgilangan muddat ichida Bankka to'liq qaytarish;

e) o'zining qayta tashkil etilishi va/yoki tugatilishidan, bunday o'zgarish bo'lishidan kamida 10 kun oldin Bankni xabardor qilish.

3-§. Taraflarning javobgarligi

13. Sotuvchi/mijoz ushbu Faktoring shartnomasi bo'yicha Bank foydasiga voz kechilgan pul talabining haqiqiyliги uchun javobgar bo'ladi.

14. Ushbu Faktoring shartnomasining 1-bandida ko'rsatilgan qarzdorlik o'z vaqtida qaytarilmaganligi uchun Sotuvchi/mijoz, har bir muddati o'tgan kun uchun to'lov muddati o'tgan qarzdorlik qiymatidan 0,1 foiz miqdorida, lekin muddati o'tgan qarzdorlikning 50 foizidan oshmagan miqdorda, Bankka penya to'laydi. Penyaning to'lanishi Sotuvchini/mijozni qarzdorlikni qaytarish majburiyatidan ozod qilmaydi.

15. Ushbu Faktoring shartnomasi 12-bandining "e" kichik bandida qayd etilgan majburiyatni bajarmaganligi uchun Sotuvchi/mijoz Bankka moliyalashtirilgan mablag'ning 1 (bir) foizi miqdorida jarima to'laydi.

16. Taraflar ushbu Faktoring shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, ularga O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan javobgarlik choralari qo'llaniladi.

4-§. Nizolarni hal qilish

17. Taraflar ushbu Faktoring shartnomasi bo'yicha kelib chiqqan nizoni sudgacha hal qilish usullarini qo'llash, shu jumladan muzokara o'tkazish orqali bartaraf etishga haqli hisoblanadi.

18. Taraflar mazkur Faktoring shartnomasi bilan bog'liq bo'lgan, muzokara yo'li bilan hal qilish mumkin bo'lmagan barcha nizolarni Bank (bank xizmatlari ofisi) joylashgan joydagi tegishli sudda ko'rib chiqishga kelishib oldilar.

5-§. Fors-major holatlar

19. Ushbu Faktoring shartnomasiga ko'ra qabul qilingan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taraf, agar bunga fors-major holat sabab bo'lganligini isbotlay olmasa, javobgar bo'ladi.

20. Fors-major holatlarga, ular oqibatida kelib chiqqan favqulodda, joriy sharoitda bartaraf etib bo'lmaydigan va oldindan kutilmagan vaziyatlar, agar ushbu vaziyatlar taraflarning mazkur Faktoring

shartnomasini bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, quyidagilar kiradi:

a) tabiiy hodisalar (zilzila, yong'in, ko'chki, dovul, suv toshqini, epidemiya, qurg'oqchilik, portlash);
b) ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakat, ish tashlash, ommaviy tartibsizliklar, qamal, moliyaviy sanrsiyalar, shuningdek barcha darajadagi davlat organlarining qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan fors-major holat sifatida tan olingan va e'lon qilingan vaziyatlar).

21. Fors-major holat sodir bo'lishi oqibatida o'z majburiyatini bajarish imkoniyatiga ega bo'lmagan va javobgarlikdan ozod qilishni da'vo qiladigan taraf fors-major holat sodir bo'lganini ma'lum bo'lishi bilan ikkinchi tarafni mazkur holat to'g'risida yozma ravishda xabardor qilishi shart.

22. Javobgarlikdan ozod bo'lish uchun asos sifatida qabul qilinadigan fors-major holat u sodir bo'lgan vaqtdan boshlab yoki agar xabar o'z vaqtida berilmagan bo'lsa, xabar berilgan sanadan e'tiboran kuchga ega bo'ladi. Xabar berilmasligi, majburiyatni bajarmagan taraf zimmasiga ko'rilgan zararni qoplash yuzasidan javobgarlikni yuklaydi.

23. Fors-major holatning 6 oylik muddat davomida saqlanib turishi mazkur Faktoring shartnomasini bekor qilish uchun asos bo'ladi.

6-§. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

24. Taraflar Faktoring shartnomasi tuzish, Faktoring shartnomasining amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng Faktoring shartnomasi bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oldi.

25. Taraflar ushbu Faktoring shartnomasidagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydi.

26. Har bir taraf Faktoring shartnomasi tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan Faktoring shartnomasi bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmagani, Faktoring shartnomasi tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmagani, taklif etilmagani, ularni berishga va'da qilinmagani, shuningdek, moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganini) kafolatlaydi.

27. Taraflar mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda korrupsiya harakatlarini bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi.

28. Qonunga xilof ravishda olingan daromadning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi tomonlarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yoki almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'i yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyati, manbai, turgan joyini, tasarruf etish va ko'chirish usulini, pul mablag'iga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga yo'l qo'ymaydi.

29. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish holati bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qiladi.

30. Taraflar tovarlar, xizmatlar, ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda yoki ularning manfaatini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi tomonlarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

a) korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;

b) ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;

d) ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

31. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydi.

32. Agar bir tarafga boshqa tarafning ushbu Faktoring shartnomasining 27-bandida belgilangan majburiyatlarning buzilishiga yo'l qo'yanligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qiladi va tegishli choralar ko'rilishi va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xabardor qilishni talab qiladi.

33. Bir tarafning talabi bo'yicha tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida

xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf mazkur Faktoring shartnomasini bir taraflama to'xtatib turish, bekor qilish hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

7-§. Sanksiyalar ro'yxatiga oid qo'shimcha shartlar

34. Sotuvchi/mijoz bank operatsiyalarini amalga oshirishda Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlarga qat'iy rioya qilinishini ta'minlaydi va kafolatlaydi. Mazkur Faktoring shartnomasi tuzilishi bilan Sotuvchi/mijoz tomonidan Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlarga rioya qilinishi kafolatlangan hisoblanadi.

35. Sotuvchi/mijoz Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan shaxslar bilan, shuningdek ularning manfaatini ko'zlab ish yuritishi mumkin degan asosli taxmin mavjud bo'lgan har qanday shaxslar bilan kelishuv, bitim, shartnoma imzolamaydi.

36. Sotuvchi/mijoz Sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan shaxslarga yoki ularning manfaati uchun har qanday kelishuv, bitim, shartnoma bo'yicha to'lovlarni amalga oshirmaydi.

37. Sotuvchining/mijozning Bankka taqdim etgan hujjat va ma'lumotlari yolg'on, ishonchsiz va/yoki noto'g'ri bo'lib chiqsa yoki ushbu Faktoring shartnomasida qayd etilgan shartlar Sotuvchi/mijoz tomonidan bajarilmasa, Bank Sotuvchining/mijozning topshirig'i asosida amalga oshirilgan bank operatsiyalari tufayli chiqib ketgan mablag'ning qaytarilishi, band solinishi, muzlatilishi, yo'qotilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

38. Sotuvchiga/mijozga Sanksiyalar ro'yxati asosida vakolatli organ, tashkilot yoki banklar tomonidan cheklov va taqiq choralari (pul mablag'iga band solinishi, to'lovning rad etilishi va boshqalar) qo'llanganligi uchun Bank javobgar emas va Sanksiyalar ro'yxati bilan bog'liq cheklov va taqiqlar tufayli ushbu Faktoring shartnomasi bo'yicha Bank o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida Sotuvchiga/mijozga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini olmaydi.

39. Bank Sotuvchining/mijozning boshqa davlatlar qonun hujjatlari bilan cheklangan yoki taqiqlangan bank operatsiyalarini banklar va/yoki kontragentlar foydasiga amalga oshirmaslik huquqiga ega. Bunday holda, tashqi savdo shartnomalari yuzasidan amalga oshirilmagan bank operatsiyalari bo'yicha javobgarlikni Bank o'z zimmasiga olmaydi.

40. Sotuvchining/mijozning topshirig'ini bajarish tufayli Bankka nisbatan mulkiy/nomulkiy sanksiyalar qo'llanilsa, Sotuvchi/mijoz Bankka nisbatan qo'llanilgan sanksiyalar natijasida kelib chiqqan zararni qoplab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8-§. Yakuniy qoidalar

41. Taraflarning mazkur Faktoring shartnomasi bilan tartibga solinmagan munosabatlari O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

42. Mazkur Faktoring shartnomasi taraflar imzolagan kundan boshlab to taraflar tomonidan ushbu Faktoring shartnomasi majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi.

43. Ushbu Faktoring shartnomasi har bir tarafga bir nusxadan va bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

44. Ushbu Faktoring shartnomasi taraflarning kelishuvi bilan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holda bekor qilinishi mumkin.

45. Ushbu Faktoring shartnomasining bekor qilinishi taraflarni u bekor qilingunga qadar bildirilgan o'zaro da'vosini (talabini) qondirish majburiyatidan ozod qilmaydi.

9-§. Taraflarning manzili, rekviziti va imzolari

Bank:

Nomi: _____
Yuridik/pochta manzili: _____
STIR _____
Telefon: _____ Faks: _____
Elektron pochta manzili: _____
Bank rekvizitlari: _____
Boshqaruvchi: _____
Muhr o'rni _____ (imzo)

Sotuvchi/mijoz:

Nomi: _____
Yuridik/pochta manzili: _____
STIR _____
Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reestridagi ro'yxat raqami: _____
Telefon: _____ Faks: _____
Elektron pochta manzili: _____
Bank rekvizitlari: _____
Rahbar: _____
Muhr o'rni _____ (imzo)